



JIZZAX VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

**JIZZAX VILOYATIDA  
SOG'LIQNI SAQLASH  
SOHASINING  
ASOSIY STATISTIK  
KO'RSATKICHLARI**  
*(2024- yil 1- yanvar holatiga)*





## Statistik ko'rsatkichlar


- ❖ **Sog'liqni saqlash statistikasi** – sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishining miqdoriy xususiyatlarini (sog'liqni saqlash muassasalari tarmog'i, ularning holati va jihozlari, tibbiyot xodimlari), butun aholi va uning alohida kontingentlarining sog'lig'i holatini o'rganadigan statistika bo'limi; umumiy odamlar va uning alohida guruhlar orasida kasallanishning tarqalishi, tuzilishi va chastotasi.
- ❖ **Tibbiyot muassasalari** – tarmog'iga barcha mulkchilik shaklidagi shifoxona va ambulatoriya, shoshilinch tibbiy yordam, ona va bola salomatligini muhofaza qilish kiradi.
- ❖ **Shifoxona o'rinlari** – statsionar davolash-profilaktika muassasalaridagi (kasalxona, tug'ruqxona, shifoxona, ixtisoslashtirilgan dispanser va boshqalar) ma'lum hudud aholisiga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan yotoqxonalar majmuasi. Bemorlarni tibbiy ixtisoslashtirish uchun barcha yotoq va yotoqxonalar bilan ta'minlash, qoida tariqasida, 10 ming kishiga hisoblab chiqiladi.
- ❖ **Shifokorlarning umumiy soniga yil oxirida tibbiyot, sanitariya muassasalarida**, ijtimoiy ta'minot muassasalari, tibbiyot ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash institutlarida va hokazolarda ishlayotgan oliy tibbiy ma'lumotli barcha mutaxassislar kiradi.
- ❖ **Tibbiyot xodimlarining umumiy soniga tibbiy-sanitariya tashkilotlarida**, ijtimoiy ta'minot muassasalarida, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, mehribonlik uylarida va boshqalarda ishlaydigan o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan barcha shaxslar (tish shifokorlaridan tashqari) kiradi.
- ❖ **Joriy yilda kasallik turi bo'yicha birinchi tashxis qo'yilgan bemorlar (holatlar) soni** – kasallanish darajasi bilan tavsiflanadi, uning darajasi birinchi tashxis qo'yilgan bemorlar sonining o'rtacha yillik aholi soniga nisbati bilan belgilanadi.






## JIZZAX VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

### Jizzax viloyatida shifoxona muassalari soni\* (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari sonini qo'shgan holda, 2024-yil 1-yanvar holatiga Jizzax viloyatida shifoxona muassasalari soni 58 tani tashkil etdi, bu esa 2020-yil 1-yanvarga nisbatan 5 taga kamaygan.

### Jizzax viloyatida shifoxona muassasalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi <sup>1)</sup> (2024- yil 1- yanvar holatiga,birlik)



2024- yil 1- yanvar holatiga shifoxona muassasalari sonining eng katta qismi Jizzax sh.(26 ta), Zomin (6 ta) va Paxtakor tumanlariga (5 ta) to'g'ri kelgan bo'lsa, boshqa tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkich Zarbdor (1 ta) hamda Zafarobod (1 ta) tumanlarida kuzatilgan.


\*Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



## JIZZAX VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

### Jizzax viloyatida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni

(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Jizzax viloyatida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni 2024-yilda 26 tani tashkil etdi, bu esa 2020- yil 1- yanvarga nisbatan 4 taga (ya'ni 13,3 foizga) kamaygan.

### Jizzax viloyatida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

(2024 yil 1- yanvar holatiga, birlik)



2024-yil 1-yanvar holatiga shahar va tumanlar kesimida eng ko'p mulkchilik shakli bo'yicha, kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni Jizzax shahriida (12 ta), Baxmal tumanida (4 ta) qayd etilgan, boshqa tumanlar bilan solishtirganda, eng past ko'rsatkichlar Forish (1 ta) hamda Yangiobod (1 ta) tumanlarida kuzatilgan.



## JIZZAX VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

### Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mulkchilik shaklidagi ambulatoriya-poliklinikalari soni\*


(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Jizzax viloyatida ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni yildan-yilga barqaror o'sib bormoqda. Ularning o'sishi 2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda 42,3% ni tashkil etdi.

### Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mulkchilik shaklidagi ambulatoriya-poliklinikalarining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi\*

(2024-yil 1- yanvar holatiga, birlik)



2024-yil 1-yanvar holatiga shahar va tumanlar kesimida eng ko'p ambulatoriya - poliklinika muassasalari soni Jizzax sh. (101 ta), Zomin (30 ta) tumanida qayd etilgan, boshqa tumanlar bilan solishtirganda, eng past ko'rsatkichl Arnasoy (6 ta) tumanida kuzatilgan.

\*Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan  
ma'lumotlarni qo'shgan holda



## JIZZAX VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

### Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalar soni

(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)




Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 133 tani tashkil etdi.

### Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalarning shahar va tumanlar

#### kesimida taqsimlanishi

(2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)




2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Jizzax viloyatida eng ko'p ambulatoriya poliklinikalari Jizzax shahri (81 ta) va Zomin tumanida (14 ta) kichik biznes subyektlari sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.



# JIZZAX VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Jizzax viloyati shifoxona muassasalarining bemor o'rinlari soni\*



(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming birlik)



Aholi uchun shifoxona muassasalarida bemor o'rinlari soni barqaror o'sib bormoqda. 2024- yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 6,7 ming o'rinni tashkil qildi.

## Jizzax viloyati shifoxona muassasalarining bemor o'rinlari soni shahar va tumanlar kesimida\*

(2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)



2024- yil 1-yanvar holatiga Jizzax viloyatida shifoxona o'rinlari soni 6,7 ming o'rinni tashkil etdi. Shifoxona muassasalarida eng ko'p o'rinlari soni Jizzax sh. 2,7 ming o'rin, Zomin 1,1 ming o'rin hamda Sh.Rashidov tumanida 0,6 ming o'rin kuzatilgan.


\*Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda






# JIZZAX VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar soni\* (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming kishi)



2020-yil 1-yanvardan  
2024-yilgacha Jizzax  
viloyatida shifokorlar soni  
3,0 ming kishidan 2,8  
ming kishiga kamaydi.

## Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar soni shahar va tumanlar kesimida\* (2024- yil 1- yanvar holatiga, kishi)



2024-yil 1-yanvar holatiga shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan vrachlarning eng yuqori soni Jizzax shahrida (1,4 ming kishi), G'allaorol tumanida (0,2 ming kishi) ro'yxatga olingan. Zomin va Sh.Rashidov tumanlarida 0,2 ming shifokorlar mavjud .

\*Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan  
ma'lumotlarni qo'shgan holda






## JIZZAX VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

### Jizzax viloyati bo'yicha, mulkchilik shakli kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlar soni (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, kishi)



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlar soni 2020-yildan, 2024-yilgacha 243 kishidan 420 kishigacha oshgan.

### Jizzax viloyati bo'yicha, mulkchilik shakli kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlar soni shahar va tumanlar kesimida (2024- yil 1- yanvar holatiga, kishi)




Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning eng yuqori soni Jizzax shahrida-278 kishi, Zomin tumanida-36 kishini hamda G'allaorol tumanida-34 kishini tashkil etdi.



## JIZZAX VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


### Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning gender bo'yicha taqsimlanishi

(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)



### Shifokorlarning mutaxassisligi bo'yicha taqsimlanishi

(2024- yil 1-yanvar holatiga, kishi)




Jizzax viloyatida 2024-yil 1-yanvar holatiga shifokorlarning katta qismi terapevtik ixtisosligi 1109 kishi, jarroxlik ixtisosligi 256 kishi, akusher ginekologlar 141 kishi hamda pediatrlar 99 kishini tashkil etdi.



# JIZZAX VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning gender bo'yicha taqsimlanishi \*

(tegishli yilning 1- yanvar holatiga, ming kishi)




Jizzax viloyatida shifokorlar bo'yicha gender taqsimoti aksariyat tumanlarda erkaklarning ustunligini ko'rsatadi. Ayollar va erkaklar orasida shifokorlarning eng ko'p soni Jizzax shahrida qayd etilgan. G'allaorol va Sh.Rashidov tumanlarida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Eng kam shifokorlar Zafarobod va Arnasoy tumanlarida.

\* Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni  
qo'shgan holda




# JIZZAX VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Jizzax viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni\* (tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)



Jizzax viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni 2020 - yilda 12,6 ming kishidan 2024 – yilda 16,3 ming kishiga ko'paydi. Ushbu davrda o'sish 3,7 ming kishini tashkil etdi.

## Shahar va tumanlar bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlari soni\* (2024- yil 1- yanvar holatiga, kishi)



2024- yil 1 yanvar holatiga jizzax viloyatida eng ko'p faoliyat yuritayotgan o'rta tibbiyot xodimlari Jizzax shahrida 9,6 ming kishi, Sh.Rashidov tumanida 1,2 ming kishini tashkil etmoqda.

\*Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda






## JIZZAX VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


### Jizzax viloyatida aholining kasalliklarga chalinishi

(tegishli yilning 1- yanvar holatiga, 100 000 aholiga nisbatan)



### Jizzax viloyatida aholining kasalliklarga chalinishi shahar va tumanlar bo'yicha

(2024- yil 1- yanvar holatiaga, 100 000 aholiga nisbatan)




Jizzax viloyatida aholining kasallanish darajasi shahar va tumanlar bo'yicha sezilarli darajada farq qiladi. Shunday qilib, uning eng yuqori ko'rsatkichlari Jizzax shahrida qayd etilgan (100 ming aholiga 1 249,9), bu aholisining yuqori zichligi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, Sh.Rashidov tumanida eng kam kasallik qayd etilgan (80,4).

Izoh: Jizzax shahrida joylashgan Markaziy tibbiyot muassasalarining soni va viloyatning barcha shahar va tumanlaridan davolanish uchun kelgan bemorlarning ko'pligi sababli aholining birlamchi kasalliklari ko'rsatkichi 100 ming kishidan oshishi mumkin.




## **Jizzax viloyatida shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni\***

*(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)*



## **Shahar va tumanlar bo'yicha shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni\***

*(2024- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi)*




Bemorlarning aksariyati Jizzax shahar (97 ming kishi), Zomin (32,6 ming kishi) va Sh.Rashidov (25,8 ming kishi) tumanlari shifoxonalarida davolangan. Eng kam ko'rsatkichlar Arnasoy (4,0 ming kishi) va Yangiobod (4,8 ming kishi) tumanlarida qayd etilgan.

\*Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



# JIZZAX VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Jizzax viloyatida kasalliklarning asosiy sinflari bo'yicha aholining kasalliklarga chalinishi (100 000 aholiga)



<sup>1)</sup>Perinatal davrdagi bolalar

<sup>2)</sup>15-49 yoshdagi ayollar



**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:  
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



**Jizzax viloyati  
Statistika boshqarmasi**



**Manzil: 100170, Jizzax sh.  
To'qimachilar ko'chasi, 7 -uy**



**Тел.: +99872 221-51-36**



**e-mail: [info@jizzaxstat.uz](mailto:info@jizzaxstat.uz)**



**[www.jizzaxstat.uz](http://www.jizzaxstat.uz)**



**[facebook. jizzaxstat.com](https://facebook.jizzaxstat.com)**